

Date: 5th August-2026

ISPAN TILI VA MADANIYATINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Islomova Ziyoda Xikmatilla qizi
Talaba, O'zDJTU,
E-pochta: ziyodaislomova56@gmail.com

Annotatsiya: Kundan kun zamonaviy texnologiyalari rivojlanib, xalqaro aloqalar dunyo miqyosida alohida o'rin egallayotgan asrimiz ayniqsa, chet tillarini mukammal o'zlashtirishni taqazo etmoqda. Yangi tilda so'zlashish bilangina cheklanmay, balki u bilan Shuningdek, uni o'rganish jarayonida tilning nozik nuqtalaridan sanalmish kinoya, sarkazim, hazil turlari va murojat shakillariga e'tiborli bo'lish muhimdir. Albatta, ispan tili bu o'rinlarda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va alohida e'tirofga loyiq.

Kalit so'z: Verguenza ajena, Latinx, Fransisko Bilbao, vos, usted, la broma, el chiste, Jaimito, Chistes de Lepe.

Islomova Ziyoda Xikmatilla qizi
Студентка, УзГУМЯ
Электронная почта: ziyodaislomova56@gmail.com

Аннотация: В наш век, когда современные технологии развиваются с каждым днём, а международные связи занимают особое место в мировом масштабе, особенно актуальным становится необходимость совершенного овладения иностранными языками. Изучение нового языка не ограничивается лишь умением говорить на нём, но также побуждает проводить исследования народов, культур и территориальных особенностей, неразрывно связанных с этим языком. Кроме того, в процессе его изучения важно уделять внимание таким тонким аспектам языка, как ирония, сарказм, различные виды юмора и формы обращения. Безусловно, испанский язык отличается своей спецификой в этих аспектах и заслуживает особого внимания.

Ключевые слова: Verguenza ajena, Latinx, Франсиско Бильбао, vos, usted, la broma, el chiste, Jaimito, Chistes de Lepe.

Islomova Ziyoda Xikmatilla qizi
Student, UzSWLU
E-mail: ziyodaislomova56@gmail.com

Abstract: In our era, when modern technologies are developing day by day and international relations are gaining a significant place on a global scale, mastering foreign languages to a high level has become increasingly important. Learning a new language is not limited to speaking it; it also encourages research into the peoples, cultures, and geographical contexts closely connected with that language. Furthermore, during the process of language learning, it is important to pay attention to such subtle aspects of language as irony, sarcasm, different types of humour, and forms of address. Spanish, in



Date: 5th August-2026

particular, stands out for its distinctive characteristics in these areas and deserves special recognition.

Keywords: Verguenza ajena, Latinx, Francisco Bilbao, vos, usted, la broma, el chiste, Jaimito, Chistes de Lepe.

Har bir mamlakat o'zining geografik joylashuvi, aholi , turfa xil tillari va madaniyati bilan bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Bu esa insonda ularni o'rganish, turli yangiliklar va noyob odatlarni kashf etishga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Albatta, til muayyan bir davlatning o'z tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi, urf-odatlarini yoritib berishda asosiy vositalardan biridir. Shulardan aynan ispan tili haqida fikr yuritilsa, so'zlashuvchilari soni, mintaqaviy o'rni, nihoyatda boy o'ziga xos milliy an'analari bilan kishini jalb qilmay qo'ymaydi. Bir-biriga yaqin hududda shuningdek, bir muhitda istiqomat qiluvchilar nafaqat ma'nan balki madaniy jihatlarida ham o'zaro aloqadordirlar. Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub bo'lmish ispan lingvistikasini o'rganishda eng avvalo Ispan hamda Lotin Amerikalik tushunchalarini farqlash, mazmun-mohiyatini to'liq anglash muhim sanaladi. Hissiy ifodalarni yohud iboralarni bir tildan ikkinchisiga to'g'ridan to'g'ri o'girish imkonsiz ammo ularga mos jumalarni tanlay ola bilish ahamiyatlidir. Misol tarzida ispancha "Verguenza ajena" iborasi boshqaning xatti-harakatidan uyalish, birov uchun xijolat bo'lish, noqulay ahvolga tushgan odamni ko'rib uyalish kabi ma'nolarga ega bo'lsada, umumiyashtirilgan holda "Uyat", "Xijolat" deya tarjima qilinadi.

Ispan, lotin Amerikalik nomlari tilga olinganda ko'pchilikning hayoliga ispanzabonlar kelsada, bu ikki mintaqada bir-birlaridan katta farqlanishga ega. Lotin Amerikalik e'tirofi ilk bor Chiliylik siyosatshunos Fransisko Bilbao tomonidan 1856-yil taqdim etilgan. Bu ibora aynan lotin tilidan kelib chiqqan tillarda so'zlashuvchi davlatlarni tasvirlashda foydalanilgan. Ya'ni u o'z ichiga ispan, portugal, fransuz tillarini olgan. Hududiy o'rniga ko'ra Janubiy, Markaziy Amerika, Karib orollarining ayrim qismlari, umumiy hisobda yigirmata davlat hamda Puerto Rico singari hududlarni o'zida mujassam etadi. Biroq baxtga qarshi Markaziy Amerikadagi Belize, Guyamana hamda Janubiy Amerikaning Surinami shaharlari bundan mustasno bo'lib, Belize va Guyamanada ingliz, Surinamida esa sranan Tongo, nemis tillari davlatning rasmiy tillari hisoblanadi. Bundan tashqari, so'ngi o'zgarishlarga qaraganda ular yangi "Latinx" jumlasini ham keng targ'ib qilishmoqda bunga sabab esa tilning jinsga bo'linishidir. Bundan kelib chiqadiki "Latino" erkak jins, "Latina" ayol jins so'zlarga mansub.

"Ispanlar" deyilganda ispan tilida so'zlashuvchi, Yevropa hududida joylashgan aynan Ispaniyada, Karib orollarining ayrim hududlarida istiqomat qiluvchi shuningdek, ajdodlari ham ushbu tilda so'zlashgan va ispan mamlakatlarga mansub bo'lgan aholiga aytiladi. Braziliya, Lotin Amerikasidagi shaharlar bundan mustasno bo'lib, ispan tili ularda hukmron til hisoblanmaydi. "Servantes" institutining izlanishlariga qaraganda dunyo bo'ylab ispan tilida so'zlashuvchilar soni 400 milliondan oshsa, shuning 10% ni Amerika Qo'shma Shtatlari fuqarolari tashkil qiladi. Shunga qaramay, ayrimlarning ham ispan ham Lotin Amerikalik deb atalishlari ularning ispan tilida muloqot qiluvchi Lotin



Date: 5th August-2026

Amerikasidagi davlatdan ekanliklaridir. Huddi Meksika, Kolumbiya va Argentina davlatlari singari.

Ispan hamda o'zbek tillarining o'zaro yaqin jihatlaridan biri bu murojaat shaklidir. Xuddi bizning tilimizda bo'lgani kabi "siz" va "sen" atamallari ispan tilida "usted" "tu" nomlari bilan o'rin almashadi. "Tu" ya'ni "sen" so'zi ispanlarda o'ziga yaqin kishilar davrasida: do'stlar, oila, hamkasblar, sinfdoshlar atrofida qo'llash odat tusiga kirgan bo'lsa, "usted" ya'ni "siz" iborasi rasmiy uslubga xosdir. Ko'p xollarda ish joylarida boshliq va ishchi orasidagi suhbatda, yohud begona kishilarga va yoshi katta insonlarga nisbatan ishlatiladi. Linguistik ekspertlarning tadqiqotlariga ko'ra, "tu" frazasi norasmiy suhbatlar uchun bo'lib, lotin talaffuzidan kelib chiqadi. XVI asrda esa, "vos" iborasi ommalashadi va ko'p vaqt o'tmay rasmiy qo'llanmalarda faol bo'lib, hurmat ma'nosini ifodalashda keng qo'llanila boshlanadi. Biroq, XVII asrda "siz" manosini ko'rsatishda mukammalroq ifoda yaratishga ehtiyoj seziladi va ushbu ehtiyoj "vuestra Merced" so'zi oraqali qondiriladi. Keyinchalik shu ibora asosida kelib chiqqan va hozirgi kunda ma'lum-u mashhur "usted" nomi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir til o'rganuvchi o'rganayotgan tilining ahamiyatli nuqtasi "kinoya", "hazil" kabi jumalalarda yetarlicha bilimga ega bo'lishi lozim. Shu kabi ispancha "el sarcasmo", "la broma", "el chiste" hodisalari ayniqsa haqiqiy ispanzabonlar bilan yuzma yuz suhbatda ularni to'liq holda anglashga xizmat qiladi. Aslida "la broma" hamda "el chiste" ning har ikkisi ham o'zek tilida "hazil" deya tarjima qilinadi. Ammo ma'no jihatidan faqlanadi. Qachonki, biror hikoya to'qib, uni qiziqarliroq hamda hazilomus tarzda yetkazilsa, "el chiste" dan foydalanilgan sanaladi. Agarda biror kishining ustidan to'g'ridan to'g'ri kulinsa u "la broma" deyiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, "el chiste" odamlarni yohud auditoriyani xursand qilish maqsadida yaratilsa, "la broma" aynan maxsus bir shaxsga nisbatan qo'llaniladi. "Kinoya" asosan ovozning baland pasligiga asoslanadi va ular hazillar turkumida oz vazifasini bajaradi. Hududiy va madaniy jihatga kora ham ispancha hazillar turli nomlar bilan ataladi. Masalan, "Jaimito" Ispaniya va Lotin Amerikasidagi hazillarning mashhur qahramoni, taxminan 6-10 yoshli aqldan ozgan, sho'x va gapga chechan bola sifatida tasvirlanadi. U ingliz tilidagi "Little Johny" harakteriga juda o'xshaydi. "Chistes de Lepe" nomi bilan mashhur ushbi hazil turkumi Ispaniyaning janubidagi Lepe shahri (Huelva viloyatida) aholisi sababli yuzaga kelgan. Bu janr taxminan 1980-yillarda Ispaniyada mashhur bolgan va hozir ham keng tarqalgan. Lepe aholisi hazillarda haddan tashqari sodda, mantiqsiz yoki "aqldan kam" odamlar sifatida tasvirlanadi. Bu inglizcha "dumb blonde jokes" formulasiga mos keladi. Masalan, "Nega lepero tungi soat 12 da soatiga qaraydi? Chunki quyosh botganini bilish uchun." Bugungi kunda ba'zi ijtimoiy tashkilotlar va hatto Lepe shahar hokimiyati bu janrni kamsituvchi streotip sifatida tanqid qilgan, ammo u hali ham Ispaniya xalq og'zaki ijodida mashhur va nisbatan "zararsiz" hazil turi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir tilni hurmat qilish, undagi maydadek, ahamiyatsiz koringan jihatlariga ham e'tiborli bolish lozim. Tilni nafaqat organish balki uning ichida yashash, yangiliklar kashf etish darkor. O'rganilayotgan malum bir tilni ozimizning ona tilimizga solishtirib o'rganilsa, o'z tilimizni ham yaqindan, chuqurroq anglashga

Date: 5th August-2026

ko'maklashadi. Negaki, bir chet tilini o'zlashtirishdan oldin o'z mahalliy tilini mukammal bilish katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Casares, J. Introducción a la lexicografía moderna. Madrid: CSIC, 1950. 354 p.
2. Prieto, M., Prieto J.M. Asi Habla El Mexicano: Diccionario Basico de Mexicanismos. México, PanoramaEditorial, 1984. 142 p.
3. АНОРБОВЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>
4. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>
5. Анорбоева С. (2024). ПОДГОТОВКА ПЕРЕВОДЧИКОВ С ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 176-180. <https://doi.org/10.2024/5mckbz69>
6. Анорбоева С. А. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 11-22.

